

**O'RTA TA'LIM MAKTABLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIM
SINFLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
FANINI O'QITISHDA MUAMMO, YECHIM VA TAKLIFLAR**

Kodirov Akbar Shuxratovich

Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining AKT o'qituvchisi

Choriyeva Xursanoy Xusanovna

*Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining Matematika va informatika
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Mirqobilov Bekzod Abdulla o'g'li

*Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining Matematika va
informatika yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2023-2024 o'quv yili o'rta ta'limga muktablarining boshlang'ich sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari" fani dars mashg'ulotlari joriy etilgan. Keyingi o'quv yillarda "Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmaganligi, darsliklarni yo'qligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarni AKT savodxonligini yetarli darajada emasligi va muktablarda bu fanni o'qitish bo'yicha maxsus kompyuter xonalarning mavjud emasligi haqida fikr yuritilgan. Bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarimizni berib o'tganmiz.

Kalit so'zlar: Informatika, axborot texnologiyalari, boshlang'ich sinf, zamonaviy metodikalar, o'qitish metodikasi, davlat ta'limga standartlari, o'quv dastur, malaka oshirish, axborot texnologiyalari savodxonligi, zamonaviy kompyuterlar, raqamli texnologiyalar, klavitura, kompyuter dasturiy ta'minoti, fan dasturi.

Respublikamizda 2023-2024 o'quv yilidan boshlab o'rta ta'limga muktablarida 1-sinflar uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy qilindi. Qisqa muddat ichida 1-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasi, o'quv dasturi, davlat ta'limga standartlari va taqvim-mavzu rejalarini, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun 1-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari fani"ni zamonaviy metodikalar asosida o'qitish va o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarining dasturi ishlab chiqildi. 2023-yilning 25-avgustiga qadar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilib, o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang'ich ta'limga o'qituvchilarga sertifikatlar berildi. [1]

2016 yil A.A. Abduqodirov va G.U. Umarovalarning "Boshlang'ich ta'limga informatika elementlarini o'qitish metodikasi" (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) nomli metodik qo'llanmalarida 1-4 sinflarda Informatika va axborot texnologiyalari fani boshqa fanlar bilan bo'liq holdaligi, masalan matematika fanida berilgan misol va masalalarni, yoki mantiqiy topshiriqlarni yechish jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari to'g'risia aytib o'tilgan.

2023-2024 o'quv yili sentyabr oyidandan boshlang'ich sinflar, ya'ni 1-sinflarda Informatika va axborot texnologiyalari fani reja asosida o'tilishni boshladi. Hozirgi 2-

4 sinflarda Informatika va axborot texnologiyalari fani rejada yo'qligi sababli ularda bu fan o'tilmaydi. Ayni vaqtda bu fanni boshlang'ich sinf o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini olib bormoqdalar.

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagi muammolar kelib chiqadi:

1. 2024-2025 o'quv yilida yoki keyingi yillarga mo'ljallargan 2-sinfdan 4-sinfgacha o'tiladigan Informatika va axborot texnologiyalari fan rejalarini va ularning darsliklari mavjud emasligi;

2. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan tuziladigan reja mavzulari 5-11 sinflarda o'tiladigan mavzularini takroriy kelmasligi;

3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining Informatika va axborot texnologiyalari fani yoki axborot texnologiyalaridan keng qo'llay olish darajalari yuqori emasligi;

4. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga Informatika va axborot texnologiyalari dars mashg'ulotlari uchun zamonaviy kompyuter xonalari mavju emasligi yoki texnik vositalar yetishmasligi.

Sanab o'tilgan muammolarning ba'zilari ustida ish olib borilayotga bo'lishi mumkindir, bu muammoni qisqa vaqtda yechimlari hal eilmasa bu maktab o'quvchilarni keyingi o'quv yillarda Informatika va axborot texnologiyalari faniga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi deb o'ylaymiz.

Yuqoridagi muammolarni mumkin qadar yechimlari bo'yicha o'z takliflarimizni bermoachimiz:

1. Boshlang'ich sinflar uchun "Informatika va axborot texnologiyalri" fani bo'yicha 4 yillik o'quv dastur ishlab chiqilishi va bu dasturdagi mavzular 5-11-sinflarda Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha tuzilgan rejalarida takrorlanmasligi kerak. Mavzular zamonaviy, sodda va tushunarli tuzilishi, ya'ni o'quvchiga murakkablik qilmasligi kerak. Shu bilan birgalikda sinf yuqorilashgan sari murakkabroq hamda qiziq bo'lib borishi lozim.

2. Bugungi kunda axborot texnologiyalarda muntazam yangilanishlar bo'layotganligi sabali boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining Informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha malaka darajalarini oshirish bo'yicha joylarda qisqa o'quv kurslari tashkil etish, bir-birlari bilan tajriba almashish jarayonlari yo'lga qo'yilishi bu fanni o'tishda ancha samara beradi. Albatta, o'qituvchilar informatika va raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lishi o'quvchilardagi kompyuter savodxonligini mukammal o'rganishlariga va kelajakda taraqqiyotimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar deb bilamiz. O'qituvchilarning tez-tez malaka oshirishlari zamon bilan hamnafas yurishlariga, o'qituvchilarda o'zaro bilim va tajriba almashnish muhit vujudga keladi, qisqa vaqt ichida ham samarali natijaga erishish imkoniyati mumkin bo'ladi;

3. Maktablarda dasturga mos va zamonaviy kompyuter xonalari hamda fan dasturlar mavjud bo'lishi kerak. Dars jarayonlarini amaliy olib borilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi, ya'ni o'quvchilarda ko'zi bilan ko'rib amalda o'zlari bajara olish imkoniyati ortadi. Dasrlarni amaliy olib borilishi, ayniqsa Informatika va axborot texnologiyalari darslarini amaliy olib borilishi o'quvchilar uchun kompyuter savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli informatika va informatikaga oid

darslarda amaliy soatlar dars soatining minimum yarimini tashkil qilishi maqsadli bo'lar edi.

4. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Informatika va axborot texnologiyalari fanida maxsus klaviaturalar tashkil etilib u odatiy kaviaturalardan soddarоq bo'lishi, ortiqcha tugmalarni kamaytirilga holda o'quvchi qiziqishi uchun rangbarang ko'rinishga (ular bola ko'zlarini toliqtirmaydigan ranglarda bo'lishi kerak, bu bolalarda tugmalarni tez eslab qolishlariga yordam beradi) ega bo'lsa, klaviturada lotin harflari, raqamlar va ba'zi bir tugmalar ("probel", "enter", arifmetik belgilari: "+,-,*./,>,<,=", "backspace") bo'lishi mavzularni tez va oson o'rganishlariga asos bo'ladi deb o'ylaymiz.

5. Fan mavzulariga mos kompyuterda yaratilgan maxsus dasturiy vositalar (kompyuter dasturlari) orqali bolalarni ma'lumotlarni tez krita olishlari, klaviaturaga qaramasdan tez va behato yozishlari, ulardan erkin foydalana olishlari, ularning natijalarini baholashlari, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bu dars mashg'ulotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishlari yosh avlodni kelajakda axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortiradi deb o'ylaymiz.

Xulosa o'rнida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-soni "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijronini ta'minlash va yoshlarimizni yetuk malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun ta'lim tizimiga katta e'tibor berishimiz, bugungi jamiyat va davlat hayotida raqamli texnologiyalar yanada mukammal jamiyatni shakllantirish va ta'lim tizimida sifatlari islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi bu kelajagimiz yutug'i deb bilamiz. Bu borada xar birimiz befarq bo'lmasligimiz va o'z hissamizni qo'shishimiz lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-soni "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-may kungi "Umumiy orta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quvu yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 125-soni buyrug'i.